


Vatanni asrash, har bir insonning burchi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, aholida milliy armiyadan faxrlanish va unga bo'lgan ishonch hissini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida universitetda qishki ta'til davri bo'lishiga qaramay, joriy yilning 12-yanvar kuni onlayn tarzda "Vatanni asrash, har bir insonning burchi" mavzusida tadbir o'tkazildi.







Tadbirda mehmon sifatida O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti hodimi, ijtimoiy-gumanitar kafedrasida dotsenti, polkovnik Hotamov Shuhrat Nasirovich –tashrif

buyurdi. Shuningdek, universitet birinchi prorektori A.Ashurov, Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.Allamova, Universitetga biriktirilgan Olmazor tumani Ichki ishlar bo'limi, profilaktika katta inspektori podpolkovnik Sh.Yusupovlar, Yoshlar bilan ishlash bo'limi metodistlari X.Kamilova, universitet musiqa to'garagi rahbari M.Saparbaev, Tyutorlarimiz -universitet oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslaxatchisi F.Nabihanova, M.Esonqulov, F.Sattiev, J.Mahkamovlar hamda universitet iqtidorli talabalari Urunov Asadbek va Rustamov Dilmurodlar o'zlarining "Elektro mobillar uchun universal akkumulyator modular" va "Innovatsion harbiy to'plam" nomli loyihalarining taqdimotlari bilan ishtirok etdilar.



Mazkur tadbirda onlayn shaklda ishtirok etganlar o'z fikr mulohazalari bilan qatnashib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutahassisidan atroflicha javob oldilar.